

“JANUBIY USTYURT” MILLIY TABIAT BOG’I HUDUDIDA TARQALGAN SHIGIRTKA TURLARINING TABIIY O’SIMLIK QOPLAMIGA TASIRI

S.A.Bazarbaeva

A.O’mirzakov

"Janubiy Ustyurt" milliy tabiat bog'i ilmiy xodimlari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22658941>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 7-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 8-sentabr 2026-yil

Annotatsiya:

Mazkur maqolada “Janubiy Ustyurt” milliy tabiat bog’i hududida tarqalgan shigirtka turlarining tabiiy o’simlik qoplamiga ta’siri o’rganildi. Cho’l ekotizimida uchraydigan asosiy yem-xashak va butasimon o’simliklarga shigirtkalarining oziqlanish bosimi, fitomassa kamayishi va fitotsenoz tarkibining o’zgarishi tahlil qilindi. Shigirtkalar to’g’riqanotlilar turkumiga mansub hasharotlar bo’lib, Orthoptera turkumining eng keng tarqalgan guruhlaridan biridir. Ularning asosiy qismi Acrididae oilasiga kiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, shigirtkalar sonining ortishi dominant va subdominant turlarning kamayishiga hamda o’simliklar qoplamining siyraklashishiga olib keladi. Shuningdek, ularning fitotsenozlardagi roli hamda o’simlik qoplamini va ekotizimlarga ta’siri yoritiladi. Shigirtkalar ayrim sharoitlarda zararkunanda sifatida namoyon bo’lsa-da, tabiiy ekotizimlarda modda va energiya almashinuvining muhim bo’g’ini hisoblanadi.

Kalit so’zlar:

Janubiy Ustyurt, shigirtka, fitotsenoz, dominant tur, cho’l o’simliklari, fitomassa.



Kirish.

“Janubiy Ustyurt” milliy tabiat bog’i hududi O’zbekistonning cho’l zonasi tarkibiga kirib, o’ziga xos kserofit va galofit o’simliklari bilan ajralib turadi. Hudud flora tarkibida sho’ra (Chenopodiaceae), saksovlzorlar, kovulzorlar va yarim butalar keng tarqalgan. Ushbu ekotizimda fitofag hasharotlar, ayniqsa shigirtkalar muhim ekologik omil hisoblanadi. Shigirtkalar

(Acrididae oilasi) o’simlik biomassasini iste’mol qilish orqali fitotsenoz tarkibiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Ularning ommaviy ko’payishi natijasida cho’l o’simlik qoplamini degradatsiyaga uchrashi mumkin. Tadqiqot obyekti sifatida Janubiy Ustyurtning tabiiy yaylov fitotsenozlari olindi. Kuzatishlar marshrut va kvadrat (1 m^2 va 100 m^2) usullar asosida olib borildi. O’simliklarning umumiy qoplamini (%), dominant turlar ulushi va fitomassa miqdori baholandi. Shigirtkalarining oziqlanish spektri dala kuzatuvlari asosida aniqlandi.[1].



“Janubiy Ustyurt” milliy tabiat bog’i hududida uchratilgan

Locusta migratoria (Linnaeus 1758) - Перелётная саранча

“Janubiy Ustyurt” milliy tabiat bog’i hududida shigirtkalar asosan quyidagi o’simliklarni iste’mol qilishi kuzatildi: *Locusta migratoria* — bu juda keng tarqalgan va xavfli qishloq xo’jaligi zararkunandalaridan biri bo’lib, “ko’chmanchi chigirtka” deb ham ataladi. U ayniqsa yaylovlar va ekin maydonlariga katta zarar yetkazadi.

Locusta migratoria — o’simlikxo’r (fitofag) hasharot hisoblanadi. U asosan, Yangi o’sayotgan yashil burglar, poyalar, ba’zan g’alla boshqolari bilan oziqlanadi.

Yaylov va tabiiy o’simliklar, yovvoyi o’tlar (efemerlar), cho’r yerlardagi o’simliklar (masalan, saksovul atrofidagi o’tlar), barglarni to’liq yeb, o’simlikni yalang’och qilib qo’yadi, yosh nihollarni butunlay quritadi, to’da bo’lib uchganda katta maydonni qisqa vaqtda yo’q qiladi. [3, 112-118].

Anabasis salsa, *Haloxylon aphyllum*, *Bassia prostrata*, *Artemisia terrae-albae*. Yosh vegetativ novdalar va generativ organlar ko’proq zararlanishi aniqlandi. Ayniqsa bahor mavsumida o’simliklarning qayta o’sish davrida shigirtkalar tomonidan kuchli oziqlanish bosimi kuzatiladi.

Shigirtkalar sonining ko’payishi natijasida, umumiy o’simlik qoplamini 15–30 % gacha kamaydi, dominant turlar ulushi pasaydi va bir yillik efemer o’simliklar ko’payish tendensiyasini ko’rsatdi. Bu esa fitotsenozning strukturaviy o’zgarishiga va yaylov mahsuldorligining pasayishiga olib keladi. [5, 204-209].

Xulosa. Umuman olganda, shigirtkalar o’simlik qoplamining muhim regulyatori hisoblanadi. Ularning ommaviy ko’payishi dominant butasimon va yarim butasimon turlarning kamayishiga sabab bo’ladi. Natijada cho’l fitotsenozining barqarorligi susayadi va degradatsiya jarayoni kuchayadi. Ular tabiiy ekotizimlarda muvozanatni saqlashda ishtirok etsa-da, ayrim sharoitlarda xavfli zararkunandaga aylanishi mumkin. Shu sababli ularning biologiyasi va populyatsion dinamikasini chuqur o’rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Лачининский А.В., Сергеев М.Г., Чильдебаев М.К. и др. Саранчовые Казахстана, Средней Азии и сопредельных территорий. Ларами: Международ. ассоц. прикл. акридологии и ун-т Вайоминга, 2002, 387 с.
2. O’zbekistana. T., 1977; Selsko-xozyaystvennaya entomologiya. M., 1983; murodov S. A., Umumiy entomologiya kursi, T., 1986. [3, 112-118].
3. Davletshina A.G., Yeremenko T.S., Poleznie i vrednie nasekome xlopchatnika, T., 1979; Murodov S.A., Umumiy entomologiya kursi, T., 1986.
4. Sulton Alimuxamedov. [5, 204-209].

THIS STUDY EXAMINES THE IMPACT OF GRASSHOPPERS ON THE VEGETATION COVER OF THE SOUTHERN USTYURT REGION

S.A.Bazarbaeva

A.O’mirzakov

Junior Researcher of South Ustyurt National Nature Park

Abstract:

This study examines the impact of grasshoppers on the vegetation cover of the Southern Ustyurt region. The desert ecosystems of Southern Ustyurt are characterized by xerophytic and halophytic plant communities dominated by semi-shrubs and shrubs. Grasshoppers Orthoptera: Acrididae act as significant phytophagous insects influencing plant biomass and community structure.

Field observations and vegetation assessment methods were used to determine plant cover percentage, dominant species composition, and feeding preferences of grasshoppers. The results indicate that increased grasshopper density leads to a 15–30% reduction in plant cover, particularly affecting dominant species such as *Anabasis salsa*, *Haloxylon aphyllum*, *Bassia prostrata*, and *Artemisia terrae-albae*.

The study concludes that grasshopper outbreaks can alter species composition, reduce forage productivity, and decrease ecosystem stability in arid rangelands. Continuous ecological monitoring and population control measures are recommended to prevent vegetation degradation.

Keywords:

Southern Ustyurt, grasshopper, vegetation cover, desert ecosystem, plant biomass, dominant species.